

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

RAIMNAZAROVA NASIBA XOLIYAROVNA

**O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA SHEVAGA OID
SO‘ZLARNING BERILISHI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna

O'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlarning berilishi.....3

Раимназарова Насиба Холияровна

Приведение слов, относящихся к диалекту, в толковых словарях
узбекского языка.....23

Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna

Giving words related to dialect in the explanatory dictionaries of the Uzbek
language.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

RAIMNAZAROVA NASIBA XOLIYAROVNA

**O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA SHEVAGA OID
SO‘ZLARNING BERILISHI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil1551 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tersu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yoqubov Sharifjon
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Pardayev Azamat Baxronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "4" may soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (142 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "28" aprel kuni tarqatildi.
(2023-yil "28" aprel dagi 28 raqamli reestr bayonnomasi).




B. Umurqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor


A. Eshmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, f.f.d. (DSc), dotsent


Sh. Maxmaraimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida milliy til tadqiqi barcha zamon va makon uchun muhim, dolzarb masala sifatida qaraladi. Buning asosiy sababi har qanday lingvistik hodisa zahirida umumxalq tilining lisoniy-ijtimoiy imkoniyat va xususiyatlari mujassamlashganligidir. Ayni holat har qanday milliy tilning tadqiqi mavjud til birliklarining lisoniy qiymatini xolis va haqqoniy belgilash imkonini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy tilning yashovchanligini, milliy muloqotning o'ziga xos ifoda va vositalarining umumiste'mol leksikadagi faolligini ta'minlash shevalar bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlarni taqozo qiladi. Globallashuv jarayoni yuqori sur'atlarda davom etayotgan ayni zamonda xalq shevalari va ularning leksikasini milliy asoslarda jiddiy o'rganish har bir jamiyat uchun ijtimoiy zaruratga aylanib bormoqda.

Dunyo tilshunosligida dialektologiya sohasi muammo va masalalari doim muhim bo'lib kelgan. Sheva leksikasi, leksikografiyasi doirasidagi masala va vazifalar tadqiqi o'zining dolzarblilik ahamiyatini saqlab kelmoqda. Milliy tilning o'ziga xos xususiyat va vazifasini aniqlash, baholash, lug'atlarda aks ettirish, umumiste'mol leksika bilan o'zaro aloqa va munosabatini to'g'ri talqin qilish, bu boradagi ilmiy izlanishlarni amalga oshirish va rag'batlantirish zamonaviy tilshunosligimiz rivoji uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida til sathi va birliklari, til va jamiyat, til va madaniyat, til va shaxs, til va nutq kabilar munosabatining tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning muntazam amalga oshirib kelinayotganligi e'tiborga molik. Bajarilayotgan tadqiqotlar natijasida o'zbek tilining o'ziga xos grammatik qurilishi, til birliklarining lisoniy va nutqiy imkoniyat ifodalari, leksikografik tavsiflari, lisoniy-nolisoniy omillar hamkorligi masalalari talqini takomillashuviga xizmat qilib kelmoqda. Biroq o'zbek tilining shevalari va shevaga xos leksik birliklarning umumfilologik lug'atlardagi leksikografik izohi, tavsifi va talqini, ularni mukammallashtirish doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Zero, umumxalq tili – shevalar bilan bog'liq tadqiqotlarni davom ettirish, ularning amaliy ahamiyatini, samaradorlik darajasini oshirish – davr talabi. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi”¹ bu boradagi ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirishni taqozo qiladi. Shunga monand, o'zbek shevalari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni izchil davom ettirish, o'zbek shevalariga xos leksik birliklarning umumfilologik lug'atlardagi leksikografik talqinini yanada takomillashtirish, shevaga xos so'zlarning ma'no va xususiyatlarini xolis hamda haqqoniy tavsiflash, ularni leksikografik aspektda tadqiq qilish ehtiyoji dolzarblilik kasb etishi tabiiy.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // <http://lex.uz/docs/4561730>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida shevalarni o‘rganish o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlanib hozirgacha turli aspektlarda keng ko‘lamda amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, o‘zbek shevalari va adabiy til leksikasining qiyosiy tadqiqi Y.D.Polivanov, areal dialektal birliklarning turli xususiyatlari A.Borovkov, K.Yudaxin, G.Yunusov, V.Reshetov, T.Mirsoatov, H.G‘ulomov, Sh.Afzalov, Y.Aliyev, S.Ibrohimov kabi qator tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan². Shuningdek, hududiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi o‘zbek shevalari ham chuqur o‘rganilgan³. O‘zbek xalq shevalarining leksikografik talqini bilan bog‘liq masalalar doirasidagi tadqiqotlar sifatida A.Ishayev, R.Jomonov singari olimlarning ilmiy izlanishlarini ham alohida qayd qilish lozim⁴. Biroq dialektizmlarning umumfilologik lug‘atlardagi talqini masalasining monografik tarzdagi maxsus tadqiqi keyingi yillarda amalga oshirilmaganligi kuzatiladi. Dialektal tadqiqotlarning aksariyatida sheva so‘zlarini

² Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933. – 45 с.; Юнусов Ғ.О. Ўзбек шевалярини таснифлашда бир тажриба. – Тошкент: Ўздавнашр, 1935. – 68 б.; Юдахин К.К. Некоторые особенности Карабулакского говора / Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Т1. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б. 31-57; Боровков А.К. Ўзбек шева-лаҳжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, 1944. – 11 б.; Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая, морфологическая система): Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1951. – 20 с.; Афзалов Ш. Ўзбек тилининг Паркент шеvasи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1952. – 193 б.; Гуломов Ҳ. Ўзбек тилининг Жиззах шеvasи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1954. – 223 б.; Мирсоатов Т. Ўзбек тилининг қирқ шеvasи / ЎзДМ 1-том. – Тошкент: Фан, 1957. – 244 б.; Алиев А.Ю. Ўзбек тилининг Уйчи шеvasи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1959. – 199 б.; Иброҳимов С. Фарғона шевалярининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. – 456 б.; Фармонов И. Ўзбек тилининг Ўш шеvasи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1960. – 204 б.; Шарипов Ў. Ўзбек тилининг Поп шеvasи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1962. – 223 б.; Ғафурова Н. Ўзбек тилининг Ниёзбоши шеvasи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1962. – 146 б.; Шамсидинов И. Каракульский говор узбекского языка: Дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1964. – 344 с.; Узоқов Ҳ. Ўзбек тилининг Жанубий Фарғона шеваляри (фонетик, морфологик ва лексик хусусиятлари): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1965. – 230 б.

³ Зуфаров С. Ўзбек тилининг Сайрам шеvasи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1966. – 194 б.; Йўлдошев Т. Жанубий Тожикистондаги ўзбек шеваляри: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1966. – 244 б.; Шарипов Ҳ. Жанубий Қирғизистон ўзбек шеваляри: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1967. – 236 б.

⁴ Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990; Жомонов Р. Ўзбек тилининг изоҳли лугати учун диалектизмлардан сўз танлаш принциплари ва уларнинг берилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1991.

adabiy tilga qabul qilish masalasi talqini ham o'z aksini topganligiga guvoh bo'lamiz⁵. O'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qator dialektal lug'atlar yaratildi, ular o'zbek leksikografiyasi fondini boyitish barobarida xalq tilining bebaho xazinasini o'zida jamladi.

O'zbek tilining izohli lug'atlarida o'zbek shevalariga oid leksik birliklar ham joy olgan, unda dialektal tadqiqotlarning tahlil va natijalari asosida dialektal birliklar o'zining leksikografik tavsiflariga ega bo'lgan. Biroq shevaga xos so'zlarning o'zbek tilining umumfilologik izohli lug'atlardagi semantik jihatdan tavsifi, leksikografik talqini masalasi monografik tarzda maxsus tadqiq qilinmagan. Ushbu tadqiqotimiz ana shu masalalar talqini doirasidagi vazifalarning amalga oshirilishiga aloqadorlik kasb etishi jihatdan ham ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek nutqshunosligi: badiiy nutq tahlili, antropotsentrik nazariya, etnolingvistika, korpus tilshunosligi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek shevalariga oid leksik birliklarning umumfilologik izohli lug'atdagi leksikografik talqini va tavsiflarini mukammallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek tilining 2 (1981) va 5 jildli (2006-2008) izohli lug'atlaridagi shevaga oid so'zlarning statistik tahlilini amalga oshirish;

o'zbek tilining izohli lug'atlarida mavjud shevaga oid so'zlarning genetik-etimologik, shakliy-struktur, semantik tarkibiga ko'ra tavsiflanishini tekshirish;

umumfilologik izohli lug'atlarda aks ettirilgan shevaga oid so'zlarning leksik-semantik munosabatlarga ko'ra leksikografik tavsifi muammolarini o'rganish, illyustrativ misollarni tahlil qilish va mavjud izohli lug'atlardagi shevaga oid so'zlar tavsiflarini takomillashtirish;

o'zbek tilidagi shevaga oid so'zlarni milliy til korpusida aks ettirish bilan bog'liq muammolar yechimiga doir vazifalarni belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tilining 2 (1981) va 5 jildli (2006-2008) izohli lug'atlaridagi shevaga oid leksik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilining 2 (1981) va 5 jildli (2006-2008) izohli lug'atlaridagi shevaga oid so'zlarning shakliy-struktur, semantik, genetik-etimologik xususiyatlari hamda leksikografik tavsiflari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiq jarayonida statistik, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

⁵ Фитрат. Тилимиз / Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 128-131; Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая, морфологическая система): Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1951. – 20 с.; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1962; Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва ўзбек диалектлари. – Тошкент: "Қизил Ўзбекистон", "Правда Востока" ва "Ўзбекистони сурх" бирлашган нашриёти, 1963; Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? – Тошкент: Фан, 1972; Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979; Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2002.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi shevaga oid monosemantik va polisemantik so‘zlarning qiyosiyligi uch tamoyilga – omonim, sinonim, antonim, paronim, tub va yasama hamda o‘z va o‘zlashgan qatlam birligiga ko‘ra izohli lug‘atlarda berilmaganligi, ammo shevalarda uchraydigan ko‘plab leksik birliklar mavjudligi, izohli lug‘atlarda aks etgan shevaga mansub leksemalarning struktur va etimologik kelib chiqishi aniqlangan;

shevaga oid so‘zlarning lug‘aviy, morfologik xususiyatlariga qo‘shimcha tavsif berish, qo‘llanish doirasini aniqlashtirish, so‘zlar yordamida tasvirni kengaytirish uchun illyustrativ misollar berishning ilmiy-nazariy va leksikografik ahamiyati dalillangan.

o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning genetik-etimologik, leksik-semantik tavsifini mukammallashtirish, lug‘at maqolalarida dialektal leksik birlik ma’nosini to‘liq va batafsil ifodalash, ushbu leksemalarning dialektal fonetik o‘zgarishlardagi turli shakllarining izohi, funksional imkoniyatlari, shevadagi ma’nodoshlari, so‘zning qo‘llanish o‘rinlari aks etgan leksikografik tamoyillar ilmiy asoslangan;

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi dialektal so‘zlarning leksikografik talqin va tavsiflarini kuzatish jarayonida ularni yanada takomillashtirish zarurati aniqlanib, dialektal so‘z, uning adabiy tildagi sinonimi, dialektal ma’nodoshlari, dialektal fonetik o‘zgarishlardagi versiyasi va variatsiyalari izohi, funksional imkoniyatlari, qo‘llanish chegarasi, dialektal birlikning adabiy tildagi izohini umumfilologik lug‘atlarda berish asoslari belgilab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek shevalariga oid so‘zlarning o‘zbek tilining umumfilologik izohli lug‘atlaridagi statistikasi amalga oshirilgan, shakliy-struktur, genetik-etimologik xususiyatlari, semantik tarkibi va leksik-semantik munosabatlari tavsifi tahlil qilingan;

o‘zbek tilining mavjud izohli lug‘atlaridagi shevaga oid so‘zlar tavsiflarini takomillashtirish, izohli lug‘atlarda shevaga oid so‘zlar uchun illyustrativ misollarning berilishi, shevaga oid so‘zlarni milliy til korpusida semantik teglashga doir amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llangan yondashuv, usul va nazariy ma’lumotlar ilmiy va leksikografik manbalardan olinganligi, amalga oshirilgan tahlillar statistik, tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, qiyoslash metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek dialektologiyasi, leksikografiyasi bo‘yicha nazariy manbalarni boyitish, tilshunoslik, metodika, leksikografiya, amaliy leksikografiyaga oid darslik hamda qo‘llanmalarni takomillashtirish, o‘zbek tilining zamonaviy akademik va o‘quv lug‘atlarini yaratishning tamoyillarini ishlab chiqishga tatbiq qilinishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mavjud izohli, tarjima lugʻatlardagi izoh va sharhlarni mukammallashtirish, oʻzbek tilining milliy, taʼlimiy, dialektal korpuslarining maʼlumotlar bazasini, leksikografik maʼlumotlarini boyitish bilan izohlanadi. Taʼlim tizimining turli boʻgʻinidagi oʻzbek dialektologiyasi, leksikologiya, leksikografiya, sheva korpusi bilan bogʻliq oʻquv predmetlari va maxsus kurslarni oʻqitish hamda takomillashtirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbek tili izohli lugʻatlaridagi shevaga oid soʻzlarning leksikografik talqini va tavsifi yuzasidan olingan ilmiy tahlil, xulosa hamda natijalar asosida:

oʻzbek tilining izohli lugʻatlaridagi shevaga oid monosemantik va polisemantik soʻzlarning qiyosiy tahlili uch tamoyilga: omonim, sinonim, antonim, paronim; tub va yasama hamda oʻz va oʻzlashgan qatlam birligiga koʻra tadqiq etilganligiga oid xulosalaridan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G003 raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional soʻz yasalishi” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2022-yil 19-apreldagi 17-01/85-son maʼlumotnomasi). Natijada qoraqalpoq tili leksikasidagi soʻzlarning semantik, etimologik, struktur xususiyatlarini tavsiflash, xalq maqollari leksik tarkibiga doir tahlillarning ilmiy asoslangan holda taqdim etilish imkonini bergan;

shevaga oid soʻzlarning lugʻaviy, morfologik xususiyatlariga qoʻshimcha tavsif berish, qoʻllanish doirasini aniqlashtirish, soʻzlar yordamida tasvirni kengaytirish uchun illyustrativ misollar berishning ilmiy-nazariy va leksikografik ahamiyati dalillangan tavsiyalar va xulosalaridan (asosan, eʼlon qilingan maqola va tezislardan) davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi PZ-20170927147 raqamli “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha boʻlgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 10-apreldagi 01/4-2738-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha doirasida eʼlon qilingan XIII asrga qadar boʻlgan turkiy yozma manbalarda uchraydigan dialektal xarakterdagi leksikaning struktur-etimologik talqiniga doir ilmiy maqolalar asosli dalillar bilan boyitilgan;

oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida shevaga oid soʻzlarning genetik-etimologik, leksik-semantik munosabatlarga koʻra tavsifini mukammallashtirishga doir berilgan tavsiyalar, lugʻat maqolalarida dialektal leksik birlik maʼnosini oydinlashtirishga, mukammallashtirishga xizmat qiluvchi ushbu leksemaning dialektal fonetik oʻzgarishlardagi turli shakllarining izohi, funksional imkoniyatlari, shevadagi maʼnodoshlari, soʻzning qoʻllanish oʻrinlari aks etgan leksikografik tavsiyalar va xulosalaridan “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining “Ochiq dars” koʻrsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasining 2022-yil 06-apreldagi 06-39-752-son maʼlumotnomasi). Natijada koʻrsatuv mavzusi doirasidagi maʼlumotlarning maʼrifiy, ilmiy va amaliy jihatdan boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 11 ta ilmiy maqola va tezis chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya nashr etilgan. O'zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, obyekti va predmeti, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi shevaga oid so'zlarning statistik, genetik-etimologik va shakliy-struktur tavsifi”** deb nomlanib, unda o'zbek tilining izohli lug'atlaridagi shevaga oid so'zlarning statistik, genetik-etimologik va shakliy-strukturtadqiqotlari tahlil qilindi.

Milliy tilning haqiqiy boyligini o'zida aks ettiruvchi xalq shevalari tilning o'ziga xosliklarini ifodalashi jihatidan, uning taraqqiyot jarayonini kuzatish va xulosalar taqdim qilish imkoniyatini bera olishi nuqtayi nazaridan oxirgi yuzyillarda o'zbek tilshunosligida ko'plab tadqiqotlarning obyekti bo'lgan. Xususan, shevaga xos leksik birliklar adabiy til leksikasiga qiyosan, shuningdek, areal dialektal birliklarning turli xususiyatlari Y.D.Polivanov, G.O.Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Afzalov, H.G'ulomov, T.Mirsoatov, A.Aliyev, S.Ibrohimov, N.G'afurova, I.Shamsiddinov, S.Rahimovkabi qator tilshunos olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Qolaversa, hududiy jihatdan O'zbekiston Respublikasiga kirmagan hududda istifoda etiladigan o'zbek shevalari ham S.Zufarov, T.Yo'ldoshev, H.Sharipov tomonidan chuqur o'rganilgan. O'zbek xalq shevalarining leksikografik talqini masalasi A.Ishayev, R.Jomonov singari tilshunos olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, bu kabi tadqiqotlarning aksariyatida sheva so'zlarini adabiy tilga qabul qilish xususida tavsiyalar keltirib o'tilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasi o'laroq o'tgan asr davomida bir qancha dialektal birliklar lug'atlari yuzaga keldi. Shevashunoslik va leksikografiya sohalarining kesishuv nuqtasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar salmog'i bugungi kunda kam ekanligi bu boradagi tadqiqotlarning ahamiyatini pasaytirmaydi. Chunonchi, xalq shevalarining lug'atda aks etishi – milliy tilning o'ziga xosligi sinxron va diaxron holatda dalil sifatida sohiblari uchun til xazinasiga olib kirilishi, o'chmas bo'lib

muhrlanishi, demakdir. Bu borada O‘zbek tilining izohli lug‘at(lar)i (O‘TIL) birlamchi va asosiy manba hisoblanadi.

O‘zbek tilining mazkur izohli lug‘atini tuzishga kirishishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari olib borilgan. Badiiy adabiyot namunalariga tayanib, lug‘atning leksik asosi – lug‘at kartotekasi fondini to‘ldirish va boyitishga alohida e‘tibor berilgan. Chunki tilning boyligi va me‘yorlari, avvalo, so‘z ustalarining asarlarida aks etadi, sayqal topadi. Natijada kartoteka fondida o‘zbek yozuvchilari asarlaridan hamda o‘zbek tilida nashr etilgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy, diniy-falsafiy, ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar, vaqtli matbuot va qisman boshqa tillardan o‘zbekchaga qilingan tarjimalardan olingan uch millionga yaqin misol-kartochka to‘plangan⁶. Lug‘atning o‘zida ta’kidlanganidek, o‘zbek tilining izohli lug‘ati keng xronologik doirada o‘zbek tilining butun so‘z boyligini emas, balki hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining keng iste’moldagi so‘z boyligini to‘plash va tavsiflash⁷ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Ana shularni hisobga olib, izohli lug‘atni yaratishning o‘zi ham ulkan mehnat va vaqt talab qiladigan jarayonligini inkor etmagan holda, izohli lug‘atlarda dialektal birliklarning berilishiga oid holatni tahlil qilar ekanmiz, ularning berilish prinsiplari, millionlab sheva so‘zlari, iboralari ichidan lug‘atga kiritish uchun aynan qaysi mezonga ko‘ra tanlab olinganligi haqida aniq xulosa shakllantirilishi uchun lug‘atning “Lug‘atning tuzilishi va undan foydalanish tartibi” qismida yetarli ma’lumot topa olmadik, qolaversa, tahlillar jarayonida ham muayyan qoidalarga amal qilinganlik haqida tasavvur uyg‘otadigan izchillik kuzatilmadi.

Qolaversa, ushbu lug‘at yaqinda qayta tahrir etilgan holda nashr etilganiga qaramay, oldingi nashrda mavjud ayrim kamchiliklarning bartaraf etilmaganini kuzatish mumkin. Yangi tahrir haqida Fanlar akademiyasi tomonidan berilgan izohda jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar birinchi navbatda tilimizda aks etishi, qisqa vaqt ichida o‘zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgani haqida so‘z boradi. Shuningdek, “Masalan, bozor iqtisodiyoti, yangicha iqtisodiy siyosat tizimidagi *avizo, audit, auditor, broker, depozit, diler, konsalting, lizing, menejer, menejment, monitoring, nou-xau, sanatsiya, xolding* kabi; fan va texnikaga oid yangi tushunchalarni ifodalovchi *displey, internet, monitor, printer, sayt, skaner, fayl* singari bir qancha yangi so‘zlarning keng qo‘llana boshlashi; *vazir, domla, mirshab, posbon, hokim* kabi so‘zlarning yangicha ma’nolar kasb etishi, o‘zbek sportining rivojlanishi tufayli *kurash, yonbosh, chala, halol* kabi so‘zlarning yangi ma’nolarga ega bo‘lishi, yuzlab diniy-tasavvufiy va falsafiy atamalarining iste’molga kirib kelishi ayni shu ijobiy ta’sir natijasidir”⁸, – deb izoh beriladi. Ko‘rish mumkinki, ushbu tahrirda yangi so‘z va terminlar lug‘atga kiritilgan, ammo tadqiqot obyektimiz bo‘lgan shevaga oid so‘zlarning izohi, berilishiga oid tuzatish, o‘zgartish va qo‘shimchalar deyarli kuzatilmaydi.

Statistik metod natijalari orqali til birliklarining rivojlanish jarayoniga oid xulosalarni shakllantirish mumkin. Xususan, shevaga oid birliklarning lug‘atda

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – Б.8.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – В.7.

⁸ <http://www.academy.uz/uz/news/ozbek-tilining-izohli-lugati-yangi-tahrirda>

berilishi statistikasi o'zbek tilining milliy imkoniyatlaridan o'rinli va keng foydalanish uchun zaruriy yondashuvlarni ham belgilashga xizmat qiladi. 1981-yilda nashr etilgan 2 jildlik lug'atda shevaga oid so'zlar soni 778 ta, 5 jildli (2006-2008) lug'atda esa 1162 tani tashkil etadi. Ushbu birliklarning mazmuniy, morfologik, struktur xususiyatlariga ko'ra, shuningdek, o'zbek tilining izohli lug'atida keltirilgan ayrim sohaga oid birliklarga qiyosan olingan statistik ma'lumotlari keltiriladi.

Dissertatsiyada o'zbek tiliga o'zlashgan shevada qo'llanuvchi so'zlarning berilishi ham statistik tahlili qilingan: fors-tojik tiliga oid – 2 jildli lug'atda 97 ta; 5 jildli lug'atda 105 ta. Arab tiliga oid – 2 jildli lug'atda 10 ta; 5 jildli lug'atda 20 ta.

Shuningdek, 2 va 5 jildli o'zbek tilining izohli lug'atlarida eskirganlik holati bo'yicha shartli belgi bilan berilgan shevaga oid birliklar, ko'chma ma'noda qo'llanuvchi shevaga oid birlik, sheva vakillari tomonidan kam qo'llanuvchi birliklar, havola usuli bilan izohlangan (*ayn.* shartli belgisi orqali berilgan) birliklar, shyevaga oid so'zning omonimlik va ko'p ma'nolilik xususiyatiga ko'ra statistik tahlillari amalga oshirildi.

Ma'lumki, qadimda qabilalarning bir-biri bilan aralashib, qo'shib ketishlari natijasida ularning tillari ham aralashib, qorishib ketgan. Bunday birlashishlar qarindosh qabilalarning o'zaro qo'shiluvidan iborat bo'ladi va ittifoqchi qabila a'zolari uchun umumiy bo'lgan til ham vujudga keladi. Ana shu qabila ittifoqlarining birlashishi o'z navbatida xalq va xalq tilining vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Turkiy tillarning mukammal lug'atini yaratgan birinchi turkolog, leksikograf, etnograf Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'ati-t turk" asarida leksik birlikning qaysi hududga tegishli ekanligini bildiruvchi qabila nomlarini kiritadi, undan so'ng so'zga izoh va misol keltiradi. Ammo olim asarda: "Har bir qabilaning sanoqsiz urug'lari bor, men bulardan asosini yozdim, shoxobchalarini tashladim" va yana "...faqat o'g'uz qabilasining urug'larini va ularning chorvalariga qo'llaydigan tamg'alarinigina namuna sifatida ko'rsatish bilan cheklandim", – deb alohida ta'kidlaydi.

Ikki va besh jildli O'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlar (dial. va shv. qisqartmali) leksik birliklarning genetik xususiyatlari talqinida farqlar mavjud. Xususan, besh jildli O'TILda shevaga oid so'zlarning qaysi tildan olinganligi haqida aniqroq tasavvur olish mumkin. Unda sof o'zbek tili (turkiy leksik qatlam)ning aks etishi shevaga oid so'zlar umumiy miqdorining 89 %ini tashkil etadi. Arab tilidan o'zlashgan shevaga oid so'zlar 2 %.

Fors tilidan olingan shevaga oid birliklar esa mos ravishda ushbu 5 jildli O'TILdagi shevaga xos so'zlarning 8 %ini tashkil etadi. Qolgan qismlar qo'shimcha foizlar tarkibida mavjud.

Xuddi shu tahlil 2 tomli O'TILda quyidagicha: sof o'zbekcha so'zlar 83 %, undan keyingi o'rinda 15 % fors-tojik tilidan o'zlashgan shevaga oid leksemalar joy oladi, arab tilidan o'zlashgan dialektal birliklar 1,5 %ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, kombinatsiya usulida yasalgan va etimologik asosi berilmagan birliklar qolgan foizlarni tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “O‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi shevaga oid so‘zlarning semantik tavsifi” deb nomlanib, unda ikki (1981) va besh (2006-2008) jildli izohli lug‘atlarda keltirilgan sheva oid birliklarning monosemantik va polisemantik xususiyatlari tahlil qilindi.

Monosemantik va polisemantik so‘zlar til leksik tizimining eng muhim xususiyatlaridan biri sanaladi. Bir ma’noli so‘zlar semantik jihatdan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, dialektlarda turlicha voqealanadi. Leksik kontekst va grammatik tabiat ko‘p ma’noli leksemaga nisbatan beriladi. Aslida leksik ma’no va uning tor yoki keng bo‘lishi, morfologik va sintaktik tabiat bir ma’noli leksemaning leksik ma’nosiga ham xos xususiyat⁹.

Jahon tilshunosligida monosemantik birliklar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda monosemiya termini o‘rnida bir ma’nolilik atamasidan tashqari “oligosemiya”, “yevrizemiya” terminlari qo‘llanadi.¹⁰ Monosemiyaning mavjud ta’riflarini birlashtirib turuvchi jihat – “bir ma’noda qo‘llanish”dir. Biroq bu ta’rif bir ma’noli so‘zlar bir semadan iborat degan xulosaga sabab bo‘lmaydi. Chunki leksik birliklar ma’nosi bir semadan iborat bo‘lmaydi. Aynan shunday ta’rifni bir ma’noli dialektal birliklarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Masalan: **AYLANTIRMOQ** 4. *dial.* Aldamoq, chalg‘itmoq. Ko’sa bobo, meni aylantirma! Mening otam Chambilbelda hali tirik, o‘lgani yo‘q. “Ravshan” dostoni. (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. I tom. – Moskva, 1981. – B. 33).

Ushbu dialektal birlik turli kontekstlarda turli semalar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, *aldamoq*, *chalg‘itmoq* semalaridan tashqari “*firib bermoq*” semasi ham mavjud. Shuningdek, turli semalarda namoyon bo‘lishini polisemiya yoki ko‘pma’nolilik bilan adashtirmaslik lozim.

Hozirgi zamon jonli sheva va etnografizmlari yozma yodgorliklarda, shuningdek, hozirgi adabiy tilimizda ham uchramaydigan ko‘pgina so‘z va so‘z formalari, lug‘aviy birliklarni o‘zida saqlab qolganki, ularni asosli ravishda o‘rganish tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashda yordam beradi.¹¹ Lug‘atlarda dialektal birliklarni izohlash, asosan, so‘zning mazmun planiga asoslanadi. Biroq tilda mavjud har qanday leksik birlik mazmun va ifoda xususiyatiga ko‘ra turlicha, bu leksik birlik mohiyatini yanada kengroq tushunishga yordam beradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi monosemantik dialektizmlar quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilindi:

1) dialektizmlarning shakl ma’no va munosabatiga ko‘ra turlari: omonim, sinonim, antonim, paronim;

2) hosil qilinish shakliga ko‘ra: tub, yasama;

3) o‘zlashma va o‘z qatlamga oidligi.

Turli yillarda nashr qilingan o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida dialektal birliklarning omonim, sinonim, antonim ko‘rinishlari uchraydi. Lug‘atlarni tadqiq qilishda quyidagi sinonimlar borligi kuzatildi:

⁹ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент, 2006. – Б. 65.

¹⁰ Cruse D.A. 1986. Lexical Semantics. Cambridge: Cambridge University Press. Allan, Keith. 1986. Linguistic Meaning. Volume One, London and New York: Routledge and Kegan Paul. Robins R.H. 1987. Polysemy and the lexicographer in Robert Burchfield (ed.). Studies in Lexicography. – Oxford: Clarendon Press. – R. 52–75.

¹¹ Раҳимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. – Тошкент, 1995.


Sinonimlar: *aldamoq*: aylantirmoq, gellamoq, gallamoq; *ishbilarmon*: giranda, ishgir; *qo'shiq*: jir, talqin; *yig'moq*-yo'g'irmoq, yig'namoq; *qaddi-qomat*: sini-sumbat, kelbat; *chelak*: satil, qovg'a; *sochiq*: surgi, sochoq, chochiq, sochqi, surtqi; *qo'ylarning qo'zilashi*: to'l, qo'zilatish.

Omonimlar: *do'lta I* (yumaloqqina, semizgina, do'mboqqina); *do'lta II* (qaymoqni qizdirib yog'ini olgandan keyin qozonda qoladigan yeyishli qismi), *yol-sayr-istirohat*, *yorg'i* (arra), *javramoq* (sovuqqa qotmoq, sovuq yemoq), *jir-qo'shiq*, *joy-bafurja*, *bamaylixotir*; *irq-yuz*, *yanog*; *kashal I* (intizor), *kashal II* (uzoq), *ko'cha* (*ko'chaoshi* ayn. *go'ja*), *manot*(so'm), *munda*(bu yerda), *mo'rcha*(chumoli, qumursqa), *obi-ravon-bir turli*, *guldor*, *ong*(ov, ilvasin), *pix*(po'panak, mog'or), *sad* (yuz), *sazo* (sado); *salla*(o'rama, ovqat), *sandiramoq*(dovdiramoq, esankiramoq); *sari I*(sariq rang), *sari II* (eng yaxshi, sara).

Aytib o'tish joizki, O'TILda berilgan bir ma'noli dialektizmlar umumiy lug'at fondining 1,32%ini tashkil etgan bo'lib, umumiy izoh, tavsifiy nuqtayi nazardan sodda tilda tushunarli tarzda ifodalagan. Biroq O'TIL tilning boyligi va serqirra ekanligini ifodalovchi vosita ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, so'zlarni mohiyatan yanada izchil va ravon ifodalash zarurati ko'rinadi. Har ikkala lug'atda berilgan dialektal birliklar mazmun, shakl nuqtayi nazaridan va hajm o'rtasida biroz tafovut borligini hisobga olmasa, qariyb o'zgarishsiz. 2 jildli lug'atda *dial.* qisqartmasi bilan berilgan bo'lsa, 5 jildli lug'atda *shv.* qisqartmasi bilan ifodalangan.

Ikkala lug'atda bir ma'noli dialektal birliklar munosabati quyidagicha (1-jadval)

1-jadval



Izohli lug'atlar til o'rganuvchilari, turli soha tadqiqotchilari va xalq ommasi murojaat qiladigan asosiy manba sanaladi. Shu boisdan yangi tahrirda yaratiladigan izohli lug'atlarda turli shevalarga oid so'zlarni ko'proq berish, ularning adabiy tilda qo'llanish/qo'llanmasligini izohlash, etimologik ma'lumot berish va aynan qaysi lahjaga xosligini ko'rsatish zarur. Bu esa o'z navbatida nafaqat tilshunoslikda yaratiladigan tadqiqotlar, balki boshqa fan sohalarida olib boriladigan izlanishlarga ham asosiy tayanch vazifasini bajaradi.

Xususan, aynanlik kategoriyasiga kiritilgan bir ma'noli dialektal birliklarni berishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

a) shakldoshlarning og'zaki nutqda qo'llanishi bo'yicha misol keltirish va izohlash;

b) aynan qisqartmasi bilan kelgan soʻzlarni qisman izohlash, kontekstda voqelanishini koʻrsatish;

v) shakldosh sifatida kelgan soʻzlarni har birini qisqacha izohlash;

Dialektal birlikning asosan qaysi lahjalarga xosligini yoki aynan qaysi dialekt vakillari nutqida qoʻllanishini keltirib oʻtish lozim.

Garchi barcha viloyatlar uchun umumiy soʻzlashuv tili oʻzbekcha boʻlsa ham, viloyatlararo leksik qatlam oʻziga xos leksik-semantik, fonetik, grammatik, sintaktik jihatdan farqlanadi. Semantik mazmunning aloqadorlik asosida turlicha ifodalanishi hudud aholisining soʻz boyligining salmogʻini belgilab beradi. Quyida shevaga oid soʻzlarning polisemantik tabiatini tavsiflashga harakat qilamiz:

DIMLAMOQ 5 *koʻchma shv.* Koʻndirmoqchi boʻlmoq; aldamoq, avramoq. *Yodgor seni oʻldirishga koʻp dimladi. Men qabul qilmadim.* Hamza, Asarlar.

GOʻPSANGI [f. – zarb (a) + – tosh] 1 *shv.* Katta tosh hovoncha. 2 *koʻchma* Qoʻpol, besoʻnaqay odam haqida.

QISINQI *dial.* 1 Siqiq, tang, qisiq. Qisinqi koʻzlar. 2 *koʻchma* Tortinchoq, uyatchan. Qisinqi bola.

QISINQILIQ 1 qisinqi *s.* Belgi oti. 2 *koʻchma dial.* Moddiy qiyinchilik, muhtojlik.

Yuqorida keltirilgan shevaga oid “dimlamoq” soʻzi adabiy tilda “hovuri chiqmaydigan qilib oʻrab qoʻymoq”, “boʻgʻmoq, toʻsmoq” maʼnolarini ifoda etadi. Ushbu soʻz shevada koʻchma maʼnolik xususiyatini namoyon etadi, yaʼni “koʻndirmoqchi boʻlmoq, avramoq, aldamoq” mazmunida qoʻllanadi. Oʻz va koʻchma maʼnolar orasida esa harakatning ifodalanishiga koʻra mazmuniy aloqadorlik mavjud. “Goʻpsangi” shevada “kata tosh hovoncha” mazmunida qoʻllanadi. Ushbu soʻz koʻchma maʼnoda “qoʻpol, besoʻnaqay odam”ga nisbatan ishlatiladi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilgan yuqoridagi misollarda turkumlarning almashinuv jarayonini kuzatish mumkin. “Goʻpsangi” soʻzi ot soʻz turkumiga oid narsa-predmetni ifodalaydi. Ammo ot soʻz turkumiga oid narsa-predmetning shakliy xususiyatlariga koʻra maʼnoda koʻchish roʻy bergan. Shakliy jihatdan besoʻnaqay oshxona buyumi insonga nisbatan belgi sifatida qoʻllanyapti.

Koʻp maʼnoli shevaga oid soʻzlar hududlararo turlicha semaga ega, ammo maʼno jihatdan baribir aloqadorlik xarakterida boʻladi. Yuqorida keltirilgan “badgoʻy” soʻzi oʻz maʼnosida “yomon gaplar aytib yuruvchi, igʻvogar” mazmunini ifoda etadi. *Shu badgoʻy, borlarni koʻrolmaydigan, yoʻqlarga berolmaydigan och arvoh-a! Ziyoli emas, millatga ziyonli chayon.* (K. Yashin, Hamza). Ammo bu soʻz koʻchma maʼnoda “chaqib gapiruvchi, dilni ogʻrituvchi, zaharli soʻzlarni aytuvchi” mazmunida qoʻllanadi. Badgoʻy xotin. Ushbu misolda leksik birlikning semantik mohiyati oʻzaro aloqadorlik kasb etyapti. Shuningdek, “baqaloq” adabiy meʼyor boʻyicha hayvonlarning tuyoq bilan ilik oʻrtasidagi boʻgʻini. *Sayislarning otga solgan daviri Tushadi tarlonning baqalogʻiga.* (“Oysuluv”). Bu soʻz shevada ham adabiy, ham koʻchma maʼnoda qoʻllanadi. Masalan, hayvonning boʻgʻin va unga yopishgan goʻshtidan iborat ovqat turi. *Soʻngra.. tugunini ochdi. Rosa ishtaha bilan qoʻyning baqalogʻini nonga qoʻshib yeya ketdi.* (Gazetadan). Oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilgan yuqoridagi misol oʻz va koʻchma maʼnosi oʻzaro aloqador, yaʼni

tana a'zosi va shu a'zodan tayyorlanadigan ovqat turi mazmunini ifoda etgan. Ushbu misol esa polifunksional xarakteriga ega. Zero, tilshunos I. Islomovning tadqiqotida polifunksional so'zlar deb bir terminning bir necha sohalarga aloqador ma'nolarni ifoda etilishi haqidagi fikr-mulohazalar mavjud¹².

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Davr talabi va o'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlarning tavsifini takomillashtirish vazifalari”** deb nomlanib, unda mavjud izohli lug'atlardagi shevaga oid so'zlar tavsiflarini takomillashtirish va kiritilishi kerak bo'lgan sheva so'zlari, izohli lug'atlarda shevaga oid so'zlar uchun illyustrativ misollarning berilishi hamda o'zbek tilidagi shevaga oid so'zlarni korpusda semantik teglashning muammo va yechimlari tahlil qilindi.

Bugungi globallashuv davrida til imkoniyatlarini oshirish, uning leksik tarkibini kengaytirish, ifoda va mazmun mundarijasini oshirish muhim jihatlardandir. Bunda dialektlardan so'z o'zlashtirish, shevalarda mavjud imkoniyatlarni adabiy tilda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, izohli lug'atlarda berilgan dialektal leksemalarning tavsiflarini ko'rib chiqish, zamon talablari va shevaviy imkoniyatlardan foydalangan holda mazmun mundarijasini boyitish, tavsifiy jihatdan tanqidiy yondashib, mohiyatan yuksaltirish dolzarb masalalardandir. Shu bilan bir qatorda, yuqorida qayd etganimizdek, shevalar hisobiga o'zbek tili imkoniyatlarini oshirishimiz, izohli lug'atlarda ularni yanada ko'proq aks ettirishimiz, dialektal leksemalarning leksikografik talqinlariga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim.

Biz, “O'zbek tilining izohli lug'ati”dagi dialektal so'zlarni kuzatish jarayonida shunga amin bo'ldikki, leksemalar izohini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da leksemalarni berishda quyidagi jihatlar aks ettirilmagan:

1. Dialektal so'z transkripsiyasi;
2. Leksemaning shevadagi ma'nodoshlari;
3. Leksemalarning dialektal fonetik o'zgarishlardagi versiyasi;
4. Leksemaning fonetik o'zgarishlardagi variatsiyalari izohi;
5. Leksemaning funksional imkoniyatlari;
6. So'zning qo'llanish chegarasi;
7. Leksema qatnashgan dialektal namuna.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da yuqoridagi jihatlar aks ettirilishi lozim. Shunda leksema mazmun mundarijasi yetarlicha namoyon bo'ladi. Bu jihatlar sheva so'zlarining barchasiga birdek tegishli bo'lmasligi mumkin. Ammo ularning mohiyatidan kelib chiqib, keltirilgan mezonlar aks ettirilsa, lug'atning qiymati yanada oshadi. Shuningdek, adabiy tilda mavjud leksemalarning shevalarda mavjud, ma'nosi hamohang bo'lgan, qisman o'zgarishga uchraganlarini shu so'z izohida shevalardagi variatsiyalari shaklida berish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dialektal so'zlarni izohli lug'atlarda aks ettirishda quyidagi mezonlarga tayanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

¹² Ислотов И.Х. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Қарши, 2021.

1. Dialektal soʻz;
2. Dialektal soʻz transkripsiyasi;
3. Dialektal soʻzning adabiy tildagi sinonimi;
4. Dialektal leksemaning shevadagi maʼnodoshlari;
5. Leksemalarning dialektal fonetik oʻzgarishlardagi variatsiyasi;
6. Leksemaning fonetik oʻzgarishlardagi variatsiyalari izohi;
7. Leksemaning funksional imkoniyatlari;
8. Soʻzning qoʻllanish chegarasi;
